

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

LINGVISTIK IDENTIFIKATSIYA VA MADANIY KODLAR

Xolova Madina Bobokulovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Email: xolova.madina@bsmi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyatning o'zaro ta'siri asosida shaxsning lingvistik va madaniy identifikatsiyasi jarayoni tahlil qilinadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki shaxsning ijtimoiy va madaniy o'zini anglashida muhim vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda lingvistik shaxs modeli (Karaulov, 1987) hamda leksik-semantik yondashuv (Wierzbicka, 1997) asosida shaxsning nutqiy shakllanishi sotsiokognitiv nuqtai nazardan yoritiladi. Interdisiplinar metodologiya asosida olib borilgan tahlillar, xususan, korpus lingvistikasi, sotsiolingvistik kuzatuv va nazariy tahlil shaxsning madaniy kodlarni o'zlashtirish darajasi bilan lingvistik identifikatsiyasi qanday bog'liqligini ochib beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, insonning lingvistik rivojlanishi biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar o'zaro ta'sirida shakllanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va globallashtirish jarayoni esa bu shakllanishga yangi omillar sifatida kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: lingvistik shaxs, madaniy kodlar, leksik-semantik tahlil, kommunikativ kompetensiya, sotsiokognitiv yondashuv, lingvistik identifikatsiya.

LINGUISTIC IDENTIFICATION AND CULTURAL CODES

Kholova Madina Bobokulovna

Bukhara State Medical Institute

Teacher of the English language department

Annotation. This article analyzes the process of linguistic and cultural identification of a person based on the interaction of language and culture. Language is considered not only a means of communication, but also an important tool for social and cultural self-awareness of a person. Based on the linguistic personality model (Karaulov, 1987) and the lexical-semantic approach (Wierzbicka, 1997), the speech formation of the personality is covered from a sociocognitive point of view. Analyses conducted on the basis of interdisciplinary methodology, in particular, corpus linguistics, sociolinguistic observation and theoretical analysis, reveal how a person's linguistic identification is related to the level of mastery of cultural codes. The research results show that the linguistic development of a person is formed by the interaction of biological, psychological, social and cultural factors. Modern digital technologies and the process of globalization strongly influence this formation as new factors.

Keywords: linguistic personality, cultural codes, lexical-semantic analysis, communicative competence, sociocognitive approach, linguistic identification.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i14/n13>

KIRISH

Shaxs nafaqat biologik va psixologik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanuvchi subyektdir. Insonning lingvistik va madaniy shakllanishi til hamda madaniyat o'zaro bog'liqligi orqali amalga oshadi. Til jamiyatning asosiy kommunikativ vositasi sifatida madaniyatni ifodalovchi hamda avloddan-avlodga uzatuvchi asosiy mexanizm hisoblanadi (Halliday, 1978). Madaniyat esa til orqali uzatiladigan ijtimoiy tajriba sifatida inson tafakkurini shakllantiradi (Vygotsky, 1978). Shu sababli, shaxs nafaqat mavjud madaniy muhit mahsuli, balki uni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omil hamdir.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globalizatsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida shaxsning lingvistik va madaniy identifikatsiyasi tobora murakkablashmoqda. Turli tillarning o'zaro ta'siri, madaniy kodlarning o'zgarishi va kommunikativ strategiyalarning rivojlanishi shaxsning til va madaniyat orqali shakllanishini yangicha tahlil qilishni talab etmoqda (Crystal, 2003). Shuningdek, sotsiokognitiv yondashuvga ko'ra, inson tafakkuri tildagi semantik maydonlar orqali shakllanadi (Wierzbicka, 1997).

Shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishini tadqiq qilish sotsiolingvistika, psixolingvistika va madaniyatshunoslik fanlari doirasida amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot metodologiyasi interdisiplinar yondashuvga asoslangan bo'lib, til va madaniyat o'zaro ta'sirini nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot interdisiplinar yondashuvga asoslanib, lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika va madaniyatshunoslik kabi fanlar doirasida olib borilgan. Tadqiqotning metodologik asosi quyidagi yondashuvlarga tayanadi:

Nazariy-metodologik tahlil – shaxs va uning lingvistik-madaniy shakllanishiga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi (Maslow, 1970; Halliday, 1978; Vygotsky, 1978; Karaulov, 1987).

Korpus lingvistikasi – turli tillarda shaxsning ruhiy va madaniy olamini ifodalovchi asosiy tushunchalar (masalan, qalb, ko'ngil, soul, dusha) semantik jihatdan tahlil qilindi (Wierzbicka, 1997).

Sotsiolingvistik kuzatuv – madaniy kodlarning lingvistik in'ikosini aniqlash uchun real kommunikativ muhitda kuzatuvlar olib borildi.

Taqqoslash usuli – turli madaniyatlardagi lingvistik identifikatsiya tamoyillari o'zaro solishtirildi (Labov, 1972).

Tadqiqotda M. Xollidey (1978) tomonidan ishlab chiqilgan Tilning funksional nazariyasi, L. Vigotskiy (1978) ilgari surgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi, Yu. N. Karaulovning (1987) lingvistik shaxs modeli, A. Wierzbicka (1997) tomonidan olib borilgan leksik-semantik tahlil asos sifatida foydalanildi.

Tadqiqot natijalarini kengroq kontekstdan baholash uchun psixolingvistika, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik nazariyalari asosida qo'shimcha tahlillar ham olib borildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida lingvistik shaxs modeli bo'yicha nazariy hamda amaliy ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning kommunikativ kompetensiya bilan bog'liqligi o'rganildi.

NATIJALAR

Shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, u insonning ijtimoiy muhitga moslashishi, nutqiy faoliyati va madaniy identifikatsiyasi bilan uzviy bog'liq. Ushbu jarayon individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy kodlarning o'zlashtirilishi orqali shakllanadi. Inson o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglash, o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash, kommunikativ muhitga moslashish hamda ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali lingvistik va madaniy jihatdan rivojlanadi (Vygotsky, 1978; Halliday, 1978).

Masalan, Maslou (1970) tomonidan ishlab chiqilgan "o'z-o'zini anglash nazariyasi" (self-actualization theory) shaxsning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ma'naviy va madaniy tajribalarga ehtiyoj sezishini ta'kidlaydi. Uning ierarxik ehtiyojlar modeli bo'yicha, inson avvalo fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirgandan keyingina ijtimoiy muloqot va o'z-o'zini anglash darajalariga ko'tariladi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan, inson madaniy

kodlarni o'zlashtirish va til vositasida o'zini ifodalash orqali ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishga erishadi (Maslow, 1970).

Shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishida sotsiokognitiv yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv inson tafakkuri va ongining rivojlanishi madaniy kodlar va lingvistik tizim orqali shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu tamoyillar M. Xollidey (M.A.K. Halliday) va L. Vigotskiy (L. Vygotsky) tadqiqotlarida keng yoritilgan.

M. Xollidey tilni inson tafakkurining rivojlanishida asosiy omil sifatida baholaydi. Uning "Tilning funksional nazariyasi" (Systemic Functional Linguistics, SFL) shaxsning lingvistik shakllanishi kommunikativ ehtiyojlar asosida sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Xollideyga ko'ra, til inson uchun nafaqat muloqot vositasi, balki dunyoni anglash va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish uchun muhim mexanizmdir (Halliday, 1978).

L. Vigotskiy esa "madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi" (Cultural-Historical Theory) doirasida inson tafakkuri va nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, inson tafakkuri til orqali shakllanadi va rivojlanadi, shuningdek, bola yoki shaxs o'zining atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi natijasida nutqni egallaydi va shu orqali tafakkur tizimini rivojlantiradi (Vygotsky, 1978).

Shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishi sotsiolingvistika nuqtai nazaridan ham tahlil qilinishi mumkin. Sotsiolingvistika shaxsning nutqiy va madaniy xususiyatlarini "lingvistik identifikatsiya" tushunchasi orqali izohlaydi. Ushbu tushuncha shaxsning qaysi til yoki lahjaga mansubligini, uning kommunikativ uslubi va madaniy kodlarga moslashish darajasini ifodalaydi (Labov, 1972).

Shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardir:

Biologik va psixologik omillar – insonning nutqiy qobiliyati, kognitiv rivojlanishi va shaxsiy intilishlari (Maslow, 1970).

Ijtimoiy omillar – oila, jamiyat, ta'lim tizimi va kommunikativ muhit (Vygotsky, 1978).

Madaniy omillar – an'anaviy qadriyatlar, milliy identifikatsiya, madaniy kodlar va dunyoqarash (Halliday, 1978).

Lingvistik omillar – til tizimi, leksik-semantik birliklar, pragmatik va diskursiv xususiyatlar (Labov, 1972).

Shu sababli, shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishi turli fanlar – psixologiya, lingvistika, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik kesishmasida o'rganilishi lozim bo'lgan murakkab jarayon bo'lib, uning ilmiy tahlili kelgusidagi lingvistik va sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Lingvistik va madaniy kodlarning leksik-semantik namoyon bo'lishi

Til inson tafakkuri va jamiyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, lingvistik tizimlar orqali shaxsning ruhiy va ma'naviy olami shakllanadi. Har bir til o'ziga xos semantik va leksik xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu xususiyatlar madaniy kodlar bilan uzviy bog'liqdir. Wierzbicka (1997) ta'kidlaganidek, har bir xalqning tili uning tarixiy tajribasi va ijtimoiy tuzilishiga mos ravishda rivojlanadi. Shu sababli, turli tillardagi hissiy va ma'naviy tushunchalar bir-biriga mutlaq ekvivalent bo'la olmaydi, balki har bir til va madaniyatning o'ziga xos semantik maydonlarida aks etadi (Karaulov, 1987).

Turli tillarda shaxsning ruhiy dunyosini ifodalovchi asosiy tushunchalar

Rus tili: Dusha (душа) – bu tushuncha insonning ichki olami, axloqiy mohiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. Rus adabiyotida dusha atamasi insoniylik, ma'naviyat va axloqiy ziddiyatlarni tasvirlashda keng qo'llaniladi (Dostoevsky, 1866).

Ingliz tili: Soul – insonning ma'naviy jihatini ifodalovchi tushuncha bo'lib, mind esa tafakkur, mantiq va aql bilan bog'liq konsepsiyani anglatadi. Ingliz tilida ushbu tushunchalar aniq ajratilgan bo'lib, falsafiy va diniy kontekstda qo'llanadi (Shakespeare, 1603).

O'zbek tili: Qalb – insonning chuqur tuyg'ulari, sadoqati va sevgi kabi kechinmalari bilan bog'liq tushuncha; ko'ngil esa inson hissiyotlari, kayfiyati va nozik his-tuyg'ularining ifodasi sifatida qo'llanadi. O'zbek madaniyatida ushbu tushunchalar xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot va falsafiy qarashlarda muhim rol o'ynaydi (Qodiriy, 1926).

Ushbu tushunchalar turli madaniy va lingvistik kontekstlarda namoyon bo'lib, badiiy adabiyotda ham keng qo'llaniladi:

F. Dostoyevskiy, "Jinoyat va jazo" – Asarda "dusha" tushunchasi bosh qahramon Raskolnikovning ichki kechinmalari, axloqiy ziddiyatlari va insoniylik izlanishlari orqali tasvirlangan (Dostoevsky, 1866).

U. Shekspir, "Hamlet" – Mashhur "To be or not to be" monologida Hamletning "mind" va "soul" tushunchalari o'rtasidagi ichki kurashi tasvirlanadi. Shekspir tafakkur va vijdon o'rtasidagi ziddiyatni lingvistik jihatdan aniq ifodalagan (Shakespeare, 1603).

A. Qodiriy, "O'tkan kunlar" – O'zbek adabiyotida "qalb" va "ko'ngil" tushunchalari insoniy munosabatlar va muhabbat kontekstida ishlatiladi. Otabek va Kumushning sevgisi qalb tushunchasi bilan bog'liq bo'lsa, Hasanali obrazining ko'ngilchanlik xususiyati milliy madaniyat kontekstida muhim rol o'ynaydi (Qodiriy, 1926).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli tillarda shaxsiy va ma'naviy tushunchalar semantik jihatdan o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Masalan, rus tilidagi dusha tushunchasi axloqiy mohiyat va insoniylikni ifodalasa, ingliz tilidagi soul tushunchasi ko'proq diniy va falsafiy konnotatsiyaga ega. O'zbek tilidagi qalb va ko'ngil esa inson hissiyotlari va sadoqatni ifodalovchi muhim madaniy kodlar sifatida namoyon bo'ladi (Wierzbicka, 1997).

Bu kabi leksik-semantik farqlar tarjima jarayonida qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki har bir tilda ma'lum tushunchalar o'ziga xos ma'no yuklaydi va ular boshqa tilga to'liq ekvivalent bo'la olmaydi. Masalan, dusha tushunchasini ingliz tiliga soul deb tarjima qilish mumkin, biroq bu tarjima rus tilidagi tushunchaning barcha semantik jihatlarini to'liq aks ettirmaydi (Wierzbicka, 1997).

Lingvistik shaxs modeli va uning kommunikativ kompetensiyasi

Shaxsning lingvistik shakllanishi va uning kommunikativ kompetensiyasi til tizimi, madaniy kodlar va sotsiolingvistik omillar orqali shakllanadi. Yu. N. Karaulov (1987) tomonidan ishlab chiqilgan "lingvistik shaxs modeli" shaxsning nutqiy faoliyatini uch darajada tahlil qilishga asoslanadi:

Verbal-semantik daraja – shaxsning til resurslari, lug'at boyligi va grammatik qobiliyatlari. Ushbu darajada shaxsning leksik-semantik kompetensiyasi, tilning strukturaviy xususiyatlarini qanchalik yaxshi egallagani baholanadi. Masalan, shaxsning grammatik tizimni to'g'ri qo'llay olish va so'zlarni mantiqiy bog'lay olish qobiliyati ushbu bosqichga tegishli.

Kognitiv daraja – shaxsning madaniy kodlarga moslashishi, til orqali dunyoqarashini ifodalash darajasi. Bu darajada shaxs nutq orqali o'z tafakkurini qanday namoyon qilishi, turli kontekstlarga moslashishi va madaniy kodlarni qabul qilish qobiliyati baholanadi.

Pragmatik daraja – shaxsning til orqali o'z fikrini samarali ifodalash, muloqotning turli vaziyatlariga moslashish qobiliyati. Ushbu darajada shaxsning kommunikativ strategiyalarni qo'llash mahorati, nutqiy faoliyatda pragmatik uslublarni ishlata olishi tahlil qilinadi (Karaulov, 1987).

Shaxsning lingvistik va madaniy shakllanishini o'rganishda ushbu model muhim ahamiyatga ega, chunki u insonning nutqiy faoliyatini faqat lingvistik jihatdan emas, balki madaniy va kognitiv nuqtai nazardan ham tahlil qilish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvistik va madaniy kodlar shaxsning lingvistik identifikatsiyasini belgilovchi asosiy omil bo'lib, uning o'zini jamiyatda qanday anglashi, ijtimoiy va madaniy muhitga moslashishi, tafakkur tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Wierzbicka (1997) va Karaulov (1987) tadqiqotlariga ko'ra, har bir til o'ziga xos semantik tizimga ega bo'lib, bu tizim milliy madaniyat bilan uzviy bog'langan. Shu sababli, turli tillarda ruhiy va ma'naviy tushunchalar o'ziga xos semantik maydonlarda shakllanadi va madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, rus tilidagi dusha tushunchasi insoniylik, axloqiy mohiyat va falsafiy tushunchalarni o'z ichiga olgan bo'lsa, ingliz tilidagi soul diniy va ruhiy jihatlarni aks ettiradi. O'zbek tilida esa qalb va ko'ngil inson hissiyotlari, sadoqat va hayotiy kechinmalarni ifodalashda ishlatiladi. Ushbu farqlar tarjima jarayonida ekvivalent muammolarni yuzaga keltirishi va turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin (Wierzbicka, 1997).

Shaxsning lingvistik va kommunikativ shakllanishini tahlil qilishda lingvistik shaxs modeli muhim ilmiy vosita sifatida qaraladi. Karaulov (1987) tomonidan ishlab chiqilgan uch darajali model – verbal-semantik, kognitiv va pragmatik darajalar – shaxsning lingvistik rivojlanishini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu model lingvistik va madaniy kodlarni o'zlashtirish, madaniyatlararo moslashish va kommunikativ strategiyalarni shakllantirish jarayonlarini tushunishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt shaxsning lingvistik identifikatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. Raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va mashinaviy tarjima tizimlari tilning o'zgarish dinamikasini tezlashtirmoqda (Jurafsky & Martin, 2021). Masalan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) algoritmlari va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan til modellarining rivojlanishi turli tillardagi madaniy kodlarning bir-biriga ta'sirini oshirishga sabab bo'lmoqda.

Biroq, bu jarayon madaniy kodlarning globalizatsiya ta'sirida yo'qolib borishiga ham olib kelishi mumkin. Ko'plab tillarda an'anaviy ifoda shakllari zamonaviy texnologiyalar ta'sirida o'zgarib, ingliz tili global kommunikatsiya vositasiga aylanib borayotganligi sababli, ko'plab madaniy kodlarning standartlashuvi va milliy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarining yo'qolishi ehtimoli ortib bormoqda (Crystal, 2003). Shu bois, madaniy kodlarning lingvistik tahlili nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb tadqiqot yo'nalishi hisoblanib, kelajakda raqamli lingvistika va sun'iy intellekt texnologiyalarining bu jarayonga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqurroq o'rganish zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, til va madaniyat shaxsning lingvistik identifikatsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, insonning dunyoqarashi, tafakkuri va jamiyatdagi o'rnini uning lingvistik hamda madaniy kodlari bilan uzviy bog'liqdir. Turli tillarda

ruhiy va hissiy tushunchalar har xil semantik maydonlarda namoyon bo'lib, bu lingvistik tafovutlar tarjima jarayonida va madaniyatlararo kommunikatsiyada muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Karaulov tomonidan ishlab chiqilgan lingvistik shaxs modeli shaxsning lingvistik shakllanishi va kommunikativ kompetensiyasini baholashda samarali vosita bo'lib, u shaxsning lingvistik identifikatsiyasi, madaniy kodlarni qabul qilish darajasi va kommunikativ strategiyalarini shakllantirish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektning lingvistik identifikatsiya jarayoniga ta'siri ortib borayotganini ko'rsatdi. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan algoritmlar va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari shaxsning lingvistik kompetensiyasini avtomatlashtirilgan tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, shu bilan birga madaniy kodlarning globalizatsiya jarayonida o'zgarishiga ham sabab bo'lmoqda. Raqamli lingvistika va madaniy kodlarning o'zgarish dinamikasini o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, kelgusida turli tillardagi leksik-semantik tizimlarni solishtirish orqali milliy madaniyatlarning lingvistik ifodalanish xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish lozim. Globalizatsiya jarayonida til va madaniyatning evolyutsiyasini kuzatish lingvistika fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda va bu boradagi qo'shimcha tadqiqotlar ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press. Pp. 229
2. Halliday, M. A. K. (1978). Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. Edward Arnold. Pp. 256.
3. Karaulov, Y. N. (1987). Русский язык и языковая личность. Nauka. Pp. 363
4. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns. University of Pennsylvania Press. pp. 89 - 107
5. Maslow, A. H. (1970). Motivation and Personality. Harper & Row. Pp. 369
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
7. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. Oxford University Press. Pp. 328
8. Kholova Madina Boboqulovna. (2024). CULTURAL CODES IN INTERCULTURAL COMMUNICATION | INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022
9. Kholova Madina Boboqulovna, . (2024). THE INFLUENCE OF CULTURAL CODES ON SOCIETY. American Journal of Philological Sciences, 4(03), 82–90.
10. Xolova Madina Boboqulovna (2024). TUSHUNCHA MADANIY KODNING SHAKLLANGAN BIRLIGI SIFATIDA. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2024/3 (108)

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.